



New York State
Seal of Biliteracy
(NYSSB)

NYS
ED
.gov

O'quvchilar uchun NYSSB

NYSSB nima?

Nyu York shtati ikkitillik tamg'asi (New York State Seal of Biliteracy—NYSSB) bu ingliz tili va yana dunyo tillaridan birida yuqori darajadagi ko'nikmalarini namoyish etgan yuqori sinflar bitiruvchilariga beriladigan mukofotdir. NYSSB tillarni o'rganishga targ'ib qiladi, xilma-xillik va dunyo xalqlarining madaniyatiga qiymat beradi hamda universitetlar va bo'lajak ish beruvchilarga bizning o'quvchilarimiz haqida ma'lumot beradi.

NYSSB o'quvchilarga qanday manfaat keltiradi?

NYSSB bugungi dunyoda bittadan ortiq tilda so'zlashish imkoniyatiga ega bo'lishning muhimligini tan oladi. U o'quvchilarning mashaqqatini ajratib ko'rsatadi, ularni o'z uylarining tillarida so'zlashishga hamda maktabda til o'rganishni davom ettirishga targ'ib etadi. Ikkita tilni bilish ushbu o'quvchilar yuqori sinfni bitirganda ularning diplom va ilovasida ko'rsatiladi hamda ushbu o'quvchilarning ko'nikmalari bo'lajak ish beruvchilar va universitetlarga yetkaziladi. Leadwithlanguages.org ma'lumotiga ko'ra ikki yoki undan ortiq tilda ko'nikmalarni rivojlantirish ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi, jumladan, ishga kirishda ustunlik, sayohat va boshqa madaniyatlarni yaxshiroq tushunish imkoniyati. Barcha NYSSB bitiruvchilarning diplomlariga rasmiy tamg'a bosiladi, bitiruv oqshomida medalyon taqiladi va, shuningdek, ularga Nyu York shtati ta'lim boshqarmasining sertifikatini ham berilishi mumkin.



White Plains yuqori sinflar
maktabida olingan surat

Kimlar NYSSB ga ega bo'lishlari mumkin?

NYSSB taklif etadigan maktab okrugida o'qiydigan har qanday ingliz tili va dunyoning boshqa biror tilini o'rganayotgan va/yoki biladigan o'quvchi ushbu mukofotga erishish uchun harakat qilishi mumkin. Bunga uyida ingliz tilidan boshqa tilda so'zlashuvchi o'quvchilar va chet tilini yuqori sinflarda o'rganayotgan o'quvchilar kiradi.

NYSSB olish uchun o'quvchilar nima qilishlari lozim ?

NYSSB olishning turli yo'llari bor. O'quvchilar talab etilgan ko'nikmalar darajasini ko'rsatishlari lozim, ya'ni ingliz tilida uch (3) ball to'planishi va chet tillarining bir yoki undan ko'pida uch (3) ball to'planishi lozim. O'quvchilar ingliz tili yoki chet tili kurslarida kamida 85% olib, milliy sinovlarda belgilangan baho olib hamda ingliz va/yoki chet tilida loyiha ustida ishlab uni taqdim etish orqali NYSSB uchun ball to'plashlari mumkin.

NYSSB haqida qayerdan ma'lumot olishim mumkin?

Maktabingizdagi NYSSB dasturi haqida batafsil ma'lumot olish uchun maktab maslahatchisi yoki ingliz tili o'qituvchingiz bilan gaplashing. Oilalar [NYSSB veb saytida](#) yoki bizning bo'linmaga e-pochta (nyssb@nysed.gov) yoki telefon (518.473.7505) orqali murojaat qilib ma'lumot olishlari mumkin.



Office of Bilingual Education and World Languages
New York State Education Department
89 Washington Avenue, 505EB
Albany, NY 12234



New York State
EDUCATION DEPARTMENT
Knowledge > Skill > Opportunity